O’ZBEKISTON BANK SEKTORINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOMIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Narzullayeva Oozoda
SamISI “Bank ishi” kafedrasi assistenti

Toshmurodov Tolmas Ashraf o'g'li
SamISI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyoti tizimida islomiy bank xizmatlaridan foydalanish, O‘zbekistonda qo‘llaniladigan bank tizimi haqida ma’lumotlar hamda islom banklarining tavsifi keltirilgan. Shuningdek, ularning o‘ziga xosligi, islom bankining asosiy faoliyati va an’anaviy bank tizimidan farqli jihatlari yoritilgan. Xalqaro islom moliyaviy muassasalari bilan davlatimiz o‘rtasidagi hamkorlikning ayrim jabhalari keltirib o’tilgan. Hamda, bu bank tizimining afzalliklari va O‘zbekistonda uni joriy qilishning foydali tomonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Islomiy banki, ALM, kapitalning adekvatligi, xatarlarni boshqarish, an’anaviy bank, islom moliyasi, sudxo‘rlik, islom bank tizimi, Islom Taraqqiyot Banki, sukuk, zakot, takoful.

Abstract: This article describes the use of Islamic banking services in the economy of our country, information about the banking system used in Uzbekistan, and a description of Islamic banks. Also, their uniqueness, the main activities of Islamic banks and their differences from the traditional banking system are highlighted. Some aspects of cooperation between the international Islamic financial institutions and our country were mentioned. At the same time, the advantages of this banking system and the beneficial aspects of its introduction in Uzbekistan were discussed.

Keywords: Islamic banking, ALM, capital adequacy, risk management, conventional banking, Islamic finance, usury, Islamic banking system, Islamic Development Bank, sukuk, zakat, takaful.

Kirish

Dunyoda aksar aholisi musulmon davlatlar juda ko’p. Bu davlatlarda islom qonunchiligidan faqatgina namoz, haj, janoza va nikoh kabi ibodatlar saqlanib

qolgan desak xato qilgan bo’lamiz. Balki, ko’pchilik davlatlar islom moliyasiga ham e’tiborini qaratmoqda va har bir musulmon kishi ham o’z davlatida islom banklari bo’lishini xohlaydi. Diniy ibodat sifatida ado etiladigan zakot, ushr, fitr sadaqasi singari majburiyatlarning zamonaviy soliq tizimi bilan qay tarzda uyg’unlashishi mumkinligi ayrim musulmon mamlakatlari misolida yaqqol ko’rinib turibdi.

Hozirgi kunda islom banki va moliyalashtirishning umumiy hajmi global miqyosda 2,6 trillion dollardan oshdi va 2024 yil yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 3,5 trln dollarga oshishi kutilmoqda.

Albatta, mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirish bo’yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham 2020 yil 29 dekbrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo’yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi” deb ta’kidlagan edilar.

So’ngi yillarda Islomiy bank degan tushuncha bizga begona atama emas. Chunki turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo‘lmagan davlatlarda ham, jumladan AQSh va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy atama an’anaviy bank xizmatlari kabi barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun ham islom bankchiligini o‘rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzuga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili

Malayziyalik olim Sudin Xorun islomiy bank tizimida ishlatiladigan besh toifadagi vositalarni keltiradi: birinchi toifaga foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan vositalar, ikkinchisiga esa oldi-sotdiga asoslangan vositalar, uchinchisiga - yig‘im va komissiyalarni o‘z ichiga olgan vositalar kiradi. To‘rtinchi toifa bepul xizmatlarni, beshinchisi esa - yordamchi xizmatlarni o‘z ichiga olgan vositalarni bayon etib beradi.

Ibrohim Varde islomiy moliyaviy mahsulotlarni mazkur vositalardan foydalanishda vujudga keladigan huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar majmuiga asoslanib tasniflaydi. Shunga muvofiq ravishda u sotishga asoslangan murobaha, musovama, istisno', salam, tavarruq va iyna kabi bitimlar kiradigan mahsulotlarni ajratib ko‘rsatadi. Ikkinchi guruhdagi vositalar ijara (yollash)ga asoslangan mahsulotlardir. Uchinchi guruhga esa foyda va zararlarni bo‘lishish hamda ulushli ishtirokka (muzoraba va mushoraka) asoslangan mahsulotlar kiradi.

R.R.Vohidov moliyaviy vositalarning eng ko‘p tarqalgan ikki guruhini ko‘rsatib o‘tadi: kapitalda ishtirok etishga asoslangan vositalar va qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar. Kapitalda ishtirok etishga asoslangan vositalarga muzoraba va mushorakani, qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalarga - murobaha, ijara, salam va sukukni kiritadi.

Shuningdek, Oliy Majlisning bir qator deputatlari islom moliyasini qo'llash amaliyoti ijobiy samara berayotganligini, islomiy davlat bo'lmasa-da Buyuk Britaniyada islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatish tobora ommalashib borayotganligini ta'kidlashmoqda. Jumladan, deputat Jahongir Abdurasulov: “Shu o'rinda ushbu tizim an'anaviy bank-moliya tizimining muqobili sifatida Islom hamkorlik tashkiloti a'zolari bo'lmagan davlatlarda ham tobora ommalashayotganini ta'kidlash joiz. O'tkazilgan so'rovnomalar, tijorat banklari, tadbirkorlar hamda ilmiy doiralarda o'tkazilgan uchrashuvlar tahlili mamlakatimizda ham ushbu tizimga juda katta qiziqish bildirilayotganini ko'rsatayotir”, – deb fikr bildirgan edi.

Islomiy moliya sohasidagi rossiyalik mutaxassis R.I.Bekkin islomiy moliyaviy mahsulotlarning quyidagi tasnifini keltiradi:

- foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmiga asoslangan vositalar yoki moliyalashtirishning investisiyaviy vositalari: muzoraba, mushoraka;

- qarz bilan bog‘liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar: murobaha, salam, shuningdek, istisno' va ijara.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotida islom moliya tizimining ahamiyati, islomiy banklar hamda ulardan foydalanishning ahamiyati va zarurligi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda rasm va jadvallardan foydalanildi. Shuningdek, bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar haqida taklif va xulosalar keltirib o'tilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Islomiy moliya tarmog‘i jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o‘zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Moliyalashning bu tizimi foyda va zararni bo‘lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o‘zida namoyon qilishi bilan an'anaviy banklardan farq qiladi.

Islomiy banklar mijoz talabi bilan obektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi. Zamonaviy bank tizimida esa banklarning savdo amaliyotlarini amalga oshirish qonunchilik nuqtayi nazaridan mushkul bo‘lib, bunga soliq hamda bank faoliyatiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar to‘sqinlik qiladi.

Islomiy banklarning asosiy vazifalari esa quyidagilardan iboratdir:

- aksionerlik kapitaliga vositalarni sarmoyalashtirish;

- ishlab chiqarish korxonalari va loyihalariga qarzlar berish;

- a'zo davlatlarga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi maqsadida boshqa shakllarda moliyaviy yordam berish;

- aniq maqsadlar uchun tuziladigan maxsus fondlarni boshqarish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha amallarda Islomiy Tijorat Banki (ITB) hech qanday foizli to'lovlarsiz iste'molchilarga xizmat ko'rsatadi. Ushbu bankning birdan bir maqsadi esa a'zo mamlakatlarning, shariatga asoslangan musulmon

jamoalarining, iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazishdan iboratdir.

Islom bankida omonatchilar bank manfaatlariga sherik bo'lishadi, shuning uchun islom banki benefitsiarlarning, shu jumladan omonatchilarning manfaatlarini maksimal darajada oshiradi. Shu sababli, islom bankchiligi va an'anaviy bank ishida ALM yondashuvlari o'rtasida o'xshashliklar mavjud. Birinchidan, bu o'xshashlik islom bankida buxgalteriya hisobining an'anaviy bankchilikka nisbatan farqidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, sudxo'rlikning noqonuniyligi va u bilan bog'liq huquqshunoslik ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, vaqt faqat o'z kapitalining (depozit kapitalining) rentabelligini oshirishda samarali omil emas; real iqtisodiyot sarmoyasi natijasida olingan daromad va zararni taqsimlash pul operatsiyalarining asosiy bazasi hisoblanadi. Bu ikki muhim omil islomiy ALMda muhim omillardir.

O‘zbekiston milliy moliya tizimida islom banklari faoliyatini yo'lga qo'yishning bir qancha afzalliklari mavjud. Masalan, islom moliya xizmatlarining kirib kelishi an'anaviy moliyalashtirish bilan raqobatni vujudga keltiradi. Bu esa har ikkala tizimning takomillashuviga xizmat qiladi. Iste'molchilarga beriladigan takliflar hajmi va sifati ortadi. O'z o'rnida mamlakat moliyaviy qudrati sezilarli darajada oshadi. Islom moliyasining ijtimoiy himoya vositalari – zakot, vaqf va sadaqa mexanizmlarining joriy etilishi ulkan foyda keltirishi mumkin. Bu borada turkiyalik mutaxassis Nihat Gumushning fikricha O‘zbekiston aholisi soni va undagi musulmonlar ulushi, yalpi ichki mahsuloti va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida O‘zbekistonda bir yilda 500 million – 1,5 milliard AQSh dollari atrofida zakot yig'iladi. Ushbu mablag'lar orqali ijtimoiy, sanitariya, ta'limdagi muammolar bartaraf etilishi mumkin. Aholining aksari musulmon bo'lganligi tufayli investitsiya fondlari ko'rsatadigan xizmatlarga bo'lgan talab har doim yuqori bo'ladi. Mablag'larni o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshib boradi. Natijada turli sohalarga pul mablag'lari kiritiladi va tadbirkorlikning bir qancha sohalari gullab yashnaydi.

Mazkur muammo va imkoniyatlarni hisobga olgan holda 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan PF 4947-son Farmon bilan belgilangan O‘zbekiston rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakat moliya va bank tizimini isloh qilish belgilandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish g‘oyasi ilgari surilgan ekan bu jarayonda banklarning nufuzini kuchaytirish ham muhim o‘rin tutadi. Buning uchun esa davlatimizda islom bank tizimini joriy qilish ancha samarali natija berishi mumkin. Chunki islom banklari moliyaviy jihatdan yaxshi ko‘rsatkichlarga ega hamda ularning daromadi ham muntazam ortib bormoqda. Qolaversa islom banklarida sudxo‘rlik yo‘qligi tufayli yurtimizda ularga yetarli darajada talab bo‘ladi. Buning uchun esa islom bank tizimining qonunchilikda asosini yaratish, xalqaro islom moliya tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish zarur.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, O’zbekistonda islom moliya xizmatlari sanoatining keng qamrovli joriy etilishi mamlakat uchun quyidagi imkoniyatlarni ochishiga ishonamiz:

• xorijdan kelayotgan investisiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;

• bank tarmog’ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkoniyatini yaratish;

• aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo’lgan bo’sh pul mablag’larining iqtisodiyot rivojlanishida maksimal ishtirokini ta’minlash;

• mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish va diversifikatsiyalash; • ko’plab yangi ish o’rinlari yaratish;

• aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini ko’tarish;

• Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;

• yangi moliyaviy muassasalar tashkil qilish;

• kambag’allikka qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo’shish;

• yangi yo’nalishda kadrlar tayyorlash dasturini yanada takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya-lash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni loyihasi.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021 yil O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, www.president.uz

3. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.

4. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориен тированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16. 4. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.

5. Bekmurodov, A. A. "KICHIK BIZNES SUB’EKTLARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.